

**QAYD NOMA №2**  
**2023-yil 6-sentyabr kuni soat 14:00 da o'tkazilgan**  
**ToshPTI Kengashining**

**QAROR LOYIHASI:**

**Kun tartibi:** 1. 2022-2023 o'quv yili yakunlari va yangi 2023-2024 o'quv yilda professor-o'qituvchilarning oldida turgan vazifalari haqida.

**Ma'ruzachi:** ToshPTI rektori t.f.d., professor B.T. Daminov.

2. 1-kurs talabalarini kutib olish. "Birinchi kurs maktabi" mashg'ulotlarini dastur asosida o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 32 yilligini munosib kutib olish. "Mustaqillik darslari"ni o'tkazish.

**Ma'ruzachi:** ToshPTI Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat ishlari buyicha prorektor M.A.Axmedova.

3. Dissertatsiya, monografiya va o'quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

**Ma'ruzachi:** Ilmiy Kengash kotibi.

4. Turli masalalar.

**Ko'rib chiqildi:**

**Birinchi masala bo'yicha** ma'ruzachi ToshPTI rektori t.f.d., professor B.T. Daminov. 2022-2023 o'quv yili yakunlari va yangi o'quv yilda professor-o'qituvchilarning oldida turgan vazifalari haqida.

**1 – masala bo'yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI rektori t.f.d., professor B.T. Daminov 2022-2023 o'quv yili yakunlari va yangi o'quv yilda professor-o'qituvchilarning oldida turgan vazifalari haqida:

Magistratura va klinik ordinatura yunalishlari uchun yangi mutaxassisliklarni ochish;

Yetuk xorijiy tibbiyot universitetlari o'quv dasturlarini tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga tadbiq etish bo'yicha hamkorlik ishlarini rivojlantirish;

Yangi avlod o'quv adabiyotlari, institut o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlari yaratish va nashr etish;

Qoldirilgan darslarni qayta topshirish va talabalar bilimini nazorat qilish maqsadida, Fan dasturiga mos test savollari to'plami shakllantirish, simulyatsiya-o'quv markaziga taqdim etish;

Barcha kafedralarda o'qitiladigan fan bo'yicha Sillabuslar ishlab chiqish va har bir pedagogning HEMIS platformasiga joylash;

Bitiruvchi kurs talabalar uchun o‘qish jarayoni masofaviy onlayn shaklda tashkil etish, konsultativ yordam ko‘rsatish uchun har bir klinik fanlar kafedralaridan tajribali professor-o‘qituvchilar biriktirish;

Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish kurslarini takomillashtirish;

Ilmiy salohiyatini oshirish;

Ilmiy grant loyihalarini tayyorlash va tanlovda ishtirot etish;

Xalqaro ilmiy jurnallarda (“Web of Sciyence”, “Scopus” va boshqa xalqaro e’tirof etilgan bazalarga kiritilgan jurnallarda) chop etiladigan ilmiy maqolalar sonini oshirish; xorijiy mualliflar bilan hamkorlikda monografiyalar, ilmiy maqolalar nashr etish;

Top-1000ga kiruvchi oliy ta’lim muassasalarda mashg‘ulot, treninglar o‘tkazgan professor-o‘qituvchilar salmog‘ini oshirish. Xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va mutaxassislar tomonidan mashg‘ulot, ma’ruza, seminar-treninglar, mahorat darslari o‘tkazish;

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar ko‘lamini kengaytirish;

Attestatsiya va akkreditatsiya jarayoniga tayyorgalik ko‘rish;

Kafedra professor – o‘qituvchilari Portfoliosi va institut veb- saytini o‘z vaqtida yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirib borish;

Kafedralarda klinik bazalar sonini optimallashtirish, xar bir klinik fanlar kafedralarining o‘quv bazalari birlamchi bo‘g‘in tibbiy-profilaktika muassalarida bo‘lishi talab etiladi.

**Ikkinchи masala bo‘yicha** ma’ruzachi ToshPTI Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat ishlari buyicha prorektor M.A.Axmedova 1-kurs talabalarini kutib olish. “Birinchi kurs maktabi” mashg‘ulotlarini dastur asosida o‘tkazish. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 32 yilligini munosib kutib olish. “Mustaqillik darslari”ni o‘tkazish to‘g‘risida

## **2 – masala bo‘yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Yoshlar bilan ishslash, ma’naviyat va ma’rifat ishlari buyicha prorektor M.A.Axmedova 1-kurs talabalarini kutib olish. “Birinchi kurs maktabi” mashg‘ulotlarini dastur asosida o‘tkazish. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 32 yilligini munosib kutib olish. “Mustaqillik darslari”ni o‘tkazish to‘g‘risida:

“Birinchi kurs maktabi” Dasturi asosida 4-9-sentyabrda yuqori saviyada o‘tkazilishi ta’milansin.

“Mustaqillik darslari” Dasturi asosida barcha guruh talabalariga kafedralar tomonidan o‘tkazilgan dars bayonnomalari rasmiylashtirilsin.

## **3 – masala bo‘yicha Ilmiy Kengash Qarori:**

ToshPTI Ilmiy Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlash uchun taqdim etilgan darslik, o'quv qo'lllnama, monografiya va uslubiy tavsiyanomalar ovozga qo'yildi va bir ovozdan keyingi bosqichga tavsiya etildi.

#### 4. Turli masalalar.

**Kengash raisi**  
t.f.d., professor:

**Kengash kotibi**  
t.f.d., dotsent:



**B.T. Daminov**

**X.A. Akramova**